

**E' L O N****IKF zavodida ammiak oqishi hodisasi**

Qo'qon, O'zbekiston – [17 may, 2025 yil]

"Indorama Qo'qon o'g'itlar va kimyoviy moddalar" aksiyadorlik jamiyati (IKF) korxonasida ammiakni temir yo'l sisterna vagonidan joydagi saqlash sisternalariga o'tkazish vaqtida ammiakning sizib chiqishi hodisasi yuz berdi. Dastlabki baholashlar shuni ko'rsatadiki, taxminan 0,5 tonna ammiak ajralib chiqqan. Dastlabki tekshiruvlarda aniqlanishicha, hodisa O'zbekistonda 2025-yilning may oyida kuzatilgan favqulodda yuqori harorat tufayli haddan tashqari bug'lanish natijasida yuzaga kelgan bo'lishi mumkin.

Oqish, tushirish jarayonida shlang ularishida kuzatilgan. IKF favqulodda yordam guruhi zudlik bilan ishga tushirildi va Hukumat Fuqaro muhofazasi va Favqulodda vaziyatlar xizmatlari yordamida vaziyatni muvaffaqiyatli yumshatdi. Ammiakning oqishi klapanlarni zudlik bilan yopish va ammiak bug'larini zararsizlantirish uchun vagon ichiga va atrofiga suv purkash orqali nazorat qilindi.

Jabrlanganlar yo'q, xodimlarga tibbiy yordam talab etilmagan. Vaziyat to'liq nazoratga olindi, normal faoliyat qayta tiklandi.

Mahalliy ma'muriyat xabardor qilingan va IKF to'liq shaffoflikni va barcha xavfsizlik protokollariga riosa qilishni ta'minlash uchun tegishli organlar bilan faol muvofiqlashtirmoqda. Kelgusida sodir bo'lischening oldini olish uchun batafsil tekshiruv olib borilmoqda.

Qo'shimcha ma'lumot uchun quyidagi manzilga murojaat qiling:

Mamatov Sohibjon  
Sog'liqni saqlash xavfsizligi va atrof-muhit bo'yicha direktor (HSE)  
Telefon +998 945500017  
Elektron pochta- [sohib.mamatov@indorama.com](mailto:sohib.mamatov@indorama.com)